

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/29.08.2023.K/T.66.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**XOSHIMOVA NAZIRA XAKIMJANOVNA**

**MAHALLIY GREK YONG‘OG‘I (JUGLANS REGIA) PO‘STLOG‘IDAN  
FOYDALANIB BUG‘DOY UNINI BIOLOGIK FAOL MODDALAR BILAN  
BOYITISH TEXNOLOGIYASI**

**02.00.17-Qishloq xo‘jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash hamda qayta  
ishlash texnologiyalari va biotexnologiyalari**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)**

**Xoshimova Nazira Hakimjanovna**

Mahalliy grek yong‘og‘i (*Juglans regia*) po‘stlog‘idan foydalanib bug‘doy unini biologik faol moddalar bilan boyitish texnologiyasi ..... 3

**Хошимова Назира Хакимжановна**

Технология обогащения пшеничной муки биологически активными с использованием коры местного грецкого ореха (*Juglans regia*) ..... 21

**Xoshimova Nazira Hakimjanovna**

Technology of enrichment of wheat flour with bioactive substances using the bark of local walnut (*Juglans regia*) ..... 39

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ ..... 42  
List of published works .....

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/29.08.2023.K/T.66.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**XOSHIMOVA NAZIRA XAKIMJANOVNA**

**MAHALLIY GREK YONG‘OG‘I (JUGLANS REGIA) PO‘STLOG‘IDAN  
FOYDALANIB BUG‘DOY UNINI BIOLOGIK FAOL MODDALAR BILAN  
BOYITISH TEXNOLOGIYASI**

**02.00.17-Qishloq xo‘jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash hamda qayta  
ishlash texnologiyalari va biotexnologiyalari**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/T2801 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Namangan muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.nammti.uz](http://www.nammti.uz)) va «ZiyoNet» axborot ta'lim tarmog'iga ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Djaxangirova Gulnoza Zinatullayevna**  
texnika fanlari falsafa doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Mamatov Sherzod Mashrabjanovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Ro'ziboyev Akbarali Tursunboyevich**  
texnika fanlari nomzodi, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi DSc.03/29.08.2023.K/T.66.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil 21 iyun soat 9<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7 – uy. Tel.: (69) 225-10-07, faks: (69) 228-76-75, e – mail: [niei\\_info@edu.uz](mailto:niei_info@edu.uz), Namangan muhandislik-texnologiya instituti, 3 – bino, 2 – qavat, Ilmiy kengash xonasi, 313- xona).

Dissertatsiya bilan Namangan muhandislik-texnologiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (15-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 160115, Namangan sh., Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (99869) 225-10-07.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «03» iyun kuni tarqatildi.  
(2025-yil «03» iyundagi 3 - raqamli reestr bayonnomasi).

**O.K. Ergashev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, kimyo fanlari doktori, professor.

**D.Sh. Sherqo'ziyev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, texnika fanlari doktori, professor.

**A.M. Xamdamov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori., v.b., professor.

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda aholini to‘laqonli va xavfsiz iste‘mol mahsulotlari bilan ta‘minlash oziq-ovqat sanoatining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib, global miqyosda barqaror rivojlanish, sog‘liqni saqlash va iqtisodiy o‘shishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tarkibida vitamin va minerallarga boy bo‘lgan o‘simlik xomashyolari asosida ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari alohida o‘rin tutadi. Aholini sifatli va biologik qiymati yuqori bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash, ularning assortimentlarini kengaytirish yo‘nalishidagi innovatsion va yangi texnologiyalar oziq-ovqat mahsulotlarining, nafaqat mahalliy, balki xalqaro bozorda raqobatbardosh va ishonchli bo‘lishini ta‘min etishda muhim ahamiyatga ega.

Dunyo miqyosida bug‘doy uni keng tarqalgan oziq-ovqat turi hisoblanib, undan tayyorlanadigan non, makaron va boshqa mahsulotlar insonlar kunlik ratsionida muhim o‘rinni egallaydi. Shu sababli tayyorlanayotgan bug‘doy unini boyitish bo‘yicha ilmiy ishlar xalqaro ko‘lamda turli yo‘nalishlarda keng tadqiq qilinmoqda. Bu borada, nutrientlarga boy bo‘lgan mahalliy grek yong‘og‘i yashil po‘stlog‘ini kimyoviy tarkibi va toksikologik xavfsizlik ko‘rsatkichlarini tadqiq qilish, ulardan oqilona foydalanish asosida oziqaviy qo‘shimchalar olish, bug‘doy unining sifat ko‘rsatkichlarini oshirishda qo‘shimchani maqbul nisbatlarini tanlash, xomashyo sarf xarajati va tannarxini kamaytirish orqali un va non mahsulotlari assortimentini kengaytirish bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy-amaliy tadqiqotlarga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda oziq-ovqat sanoati tarmoqlarida un va non mahsulotlari ishlab chiqarish va ularning assortimentini kengaytirishni ta‘minlash bo‘yicha yangi texnologiyalar yaratishda bir qancha yutuqlarga erishilmoqda. Mamlakatimiz rivoji uchun 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida-“...Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish dasturini amalga oshirish doirasida oziq-ovqat xomashyo bazasini kengaytirish va organik mahsulotlar hajmini bosqichma-bosqich oshirish maqsadida, oziq-ovqat mahsulotlari assortimentini kengaytirish, xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda, respublikani Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lishining oziq-ovqat sohasiga ta‘siri bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borib aniq takliflar ishlab chiqish”<sup>1</sup> vazifasi belgilab berilgan. Bu borada don mahsulotlarini qayta ishlashning zamonaviy texnologiyalarini yaratish va joriy etish, ishlab chiqarilayotgan un mahsulotlarini kimyoviy tarkibini yanada oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib, ilm-fan sohasida izlanishlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-sonli Farmoni, 2019-yil 29-iyuldagi “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-4 06-son, 2019-yil 23-oktyabrdagi “O‘zbekiston

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonni taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni

Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PQ-5853-son, 2020-yil 10-noyabrda "Aholining sog'lom ovqatlanishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-4887-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhitning muhofazasi" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Turli un navlarini tabiiy qo'shimchalar bilan boyitish va ulardan novvoychilik sanoatida foydalanish yo'nalishidagi tadqiqotlar M.R.Mahmoodi, M.Gomez, M.L.Sudha, L.Ya. Auerman, L.G. Ipatova, L.I. Puchkova, I.V. Matveeva, S.Ya. Koryachkina, T.B. Siganova, A.K.Sagi Varo, V.V.Aparsheva, I.N.Sheshnitsan, V.Yu.Ayrumyan, R.R.Levashov, G.Yu.Baxtin, D.A.Strigun, S.M.Pavlovskaya, A.V.Maslov, V.S.Agibalova, V.S.Kusenkova, O.A.Godunov, A.I. Istayev, J.K. Usembayeva, I.B. Isabayev, T.I.Atamuratova, G.Z.Djaxangirova, G.K. Isxakova, D.D.Mirxodjayeva, M.A.Skviryay, T.V.Levchuk, O.Yu.Orlova, O.V.Antochiy, R.A.Yenikeeva, A.N.Tkachenko, J.V.Dayronas, N.V.Kartashova, M.E.Dudnikov, N.I.Zimenkina, M.X.Muzaffarova va boshqalarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. Ular un va non mahsulotlarini o'simlik va ikkilamchi xomashyo asosida boyitish texnologiyalarini ishlab chiqish va takomillashtirishga o'z hissalarini qo'shganlar.

Biroq yong'oq po'stloqlari asosida qo'shimchalar tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish, un mahsulotlarini ishlab chiqarishda oziqaviy qiymatning yo'qotilishini kamaytirish va ular asosida tayyorlanadigan non mahsulotlari sifatini yaxshilash hamda oziqaviy va biologik qiymatini oshirish, tannarxini kamaytirish, noan'anaviy (ikkilamchi) xomashyolardan samarali foydalangan holda boyitish texnologiyasini yaratish va non assortimentini ko'paytirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar yetarlicha tadqiq etilmagan bo'lib, bu holat ushbu yo'nalishdagi tadqiqot ishlarining dolzarbligini belgilaydi.

Zero, mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda bu kabi masalalar dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqot ishi un va non mahsulotlarining oziqaviy va biologik qiymatini oshirish, tayyor mahsulotlarning organoleptik, mikrobiologik xossalari, fizik-kimyoviy, tibbiy-biologik xavfsizligiga ta'sir ko'rsatuvchi moddalar miqdori hamda xususiyatlarini tadqiq qilishga xizmat qiladi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Namangan muhandislik-texnologiya instituti va Toshkent kimyo-texnologiya institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining AM-FZ-2019081448 "Mahalliy xomashyo asosida glyutensiz non-bo'lka mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish, oziq-ovqat ishlab chiqarish chiqindilaridan ratsional foydalanish" (2020-2022-y.) mavzusidagi davlat amaliy

loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** mahalliy grek yong'og'i po'stlog'idan foydalanib, bug'doy unini biologik faol moddalar bilan boyitishning muqobil texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

un va non mahsulotlari sifatini oshirish va kimyoviy tarkibini boyitish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarini tahlil qilish;

mahalliy sharoitda yetishtirilgan grek yong'og'i yashil po'stloqlarining kimyoviy tarkibi, texnologik xossalari va toksikologik xavfsizlik ko'rsatkichlarini tadqiq qilish;

non mahsulotining oziqaviy va biologik qiymatini boyitishda foydalanilgan grek yong'og'i yashil po'stlog'iga dastlabki ishlov berishning samarador usulini aniqlash;

yashil po'stloq asosida tayyorlangan qo'shimcha bilan boyitilgan I navli bug'doy unidan non mahsulotlari retsepturasi va texnologik tartiblarini ishlab chiqish;

yashil po'stloqdan tayyorlangan qo'shimcha bilan boyitilgan non mahsulotining oziqaviyligi va biologik qiymatini hamda sifat ko'rsatkichlarini aniqlash;

qo'shimcha bilan bug'doy unini boyitish bo'yicha taklif etilgan texnologik usulning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida mahalliy sharoitda yetishtirilgan grek yong'og'i yashil po'stlog'i, I nav bug'doy uni va milliy obinon mahsulotlari tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmeti** grek yong'og'i yashil po'stloqlari qo'shimchalari asosida un mahsulotlarini biologik faol moddalar bilan boyitishning texnologik asoslari va jarayonlarini tahlil qilishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda xomashyo, yarimfabrikat, tayyor mahsulot xossalari aniqlashning umumqabul qilingan (organoleptik, reologik, fizik-kimyoviy, biokimyoviy hamda tibbiy-biologik) uslublaridan foydalanilgan. Konkordatsiya koeffitsienti son qiymatlari Xarrington verbal-sonli shkalasida topilgan va tajriba ma'lumotlariga statistik ishlov berish uchun Microsoft Excel 2013 dasturi qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

birinchi navli bug'doy unini mahalliy grek yong'og'i (Juglans regia) po'stlog'i tarkibidagi biologik faol moddalar ( $B_1$ ,  $B_2$ ,  $B_6$ , E, C, K, Ca, P, Mg, Fe, I) bilan boyitish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

birinchi navli bug'doy unini mahalliy grek yong'og'i (Juglans regia) po'stlog'i tarkibidagi biologik faol moddalar bilan boyitishning maqbul (95:5-94:6) nisbatlari topilgan;

mahalliy grek yong'og'i (Juglans regia) po'stlog'i tarkibidagi biologik faol moddalar bilan boyitish inson organizmining vitamin va minerallarga bo'lgan kunlik fiziologik ehtiyojini o'rtacha 6,5 % dan 13,9 % ga oshirilganligi aniqlangan;

boyitilgan un tarkibidagi (Ca, P, Mg, Fe) minerallar non xamirini bijg'ish

jarayonida bijg'ituvchi mikroflora hayot faoliyatining jadallashuvi hisobiga xamirning yetilish vaqtini  $150 \pm 5$  daqiqadan  $130 \pm 5$  daqiqaga qisqartirishi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

un mahsulotlarining tarkibini biologik faol moddalar bilan boyitishda mahalliy grek yong'og'i (*Juglans regia*) po'stlog'i kukunidan foydalanishning texnologik yechimi asoslangan;

non mahsulotlarining glikemik indeksi va glikemik yuklamasini 4 % ga kamayishi uchun grek yong'og'i yashil po'stlog'idan tayyorlangan qo'shimchadan foydalanish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

boyitilgan undan tayyorlangan o'zbek obinon mahsulotini tayyorlash retsepturasi ishlab chiqilib, pishirish vaqtidagi yod mikroelementini yo'qotilish ko'rsatkichlari 57 % ekanligi aniqlangan;

boyitilgan un tarkibidagi (Ca, P, Mg, Fe) minerallar non xamirini karbonat anhidrid gazining to'planish jadalligini  $130 \pm 5$  daqiqagacha orttirganligi xamirni yetiltirish vaqtini  $20 \pm 5$  daqiqagacha qisqartirganligi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** tadqiqot ishida unni boyituvchi qo'shimcha sifatida mahalliy grek yong'og'i yashil po'stlog'i qo'shib boyitilgan bug'doy unidan non ishlab chiqarishning kimyoviy tahlili suyuqlik va gaz xromotografiyalari hamda boshqa zamonaviy tahlil usullarini qo'llagan holda, laboratoriya va tajribaviy-ishlab chiqarish sharoitlarida aprobatyadan o'tkazish natijalariga ko'ra nazariy va tajriba ma'lumotlarini mos kelishi bilan tasdiqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati un mahsulotiga grek yong'og'i yashil po'stlog'i asosida tayyorlangan tabiiy qo'shimchani qo'shish orqali non mahsulotlarining biologik faol komponentlar – vitaminlar, makro va mikroelementlar bilan boyitilishi eksperimental usullar asosida asoslab berilganligi, funksional oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasini takomillashtirilganligi, sog'lom ovqatlanish tamoyillariga mos keluvchi mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lida ilmiy yondashuvni shakllantirishga asos bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, birinchi navbatda, mahalliy, ekologik jihatdan toza va qayta tiklanuvchi xomashyo resurslaridan samarali foydalanish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish bilan izohlanadi. Grek yong'og'i yashil po'stlog'idan tayyorlangan biologikfaol qo'shimchalar non mahsulotlarining oziqaviy qiymatini oshirish barobarida, ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish va shu orqali umumiy rentabellikni yaxshilash imkonini beradi. Buning natijasida oziq-ovqat sanoatida import o'rnini bosuvchi raqobatbardosh texnologiyalarni joriy etish, innovatsion va funksional xususiyatlarga ega oziq-ovqat mahsulotlari assortimenti kengaytirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Grek yong'og'i yashil po'stlog'i qo'shimchasidan foydalanish asosida unli mahsulotlar sifatini yaxshilash va oziqaviy xavfsizligini ta'minlash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Mahalliy sharoitda yetishtirilgan grek yong'og'i yashil po'stlog'i qo'shimchasi qo'shilgan I navli bug'doy uni ishlab chiqarish texnologiyasi "O'zbekiston oziq-ovqat sanoati" uyushmasining "2025-2027-yillarda amaliyotga joriy etiladigan

ishlanmalar ro'yxati"ga kiritilgan (O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasining 2024-yil 2-oktyabrdagi № 02-94/10-2 sonli ma'lumotnomasi). Natijada valyuta hisobiga keltiriladigan nutrientlar importi o'rnini bosuvchi mahalliy grek yong'og'i po'stlog'i asosida tayyorlangan qo'shimcha bilan un mahsulotini boyitishning tejamkor texnologiyasini yaratish imkonini beradi.

boyitilgan un asosida non mahsulotini ishlab chiqarish texnologiyasi "Namangan don mahsulotlari" AJ, "Nurobod lazizli non" MCHJ korxonalarida ishlab chiqarishga joriy etilgan (O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasining 2024 yil 2 oktyabrdagi 02-94/10-2 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, boyitilgan un asosida ishlab chiqarilgan non mahsulotini tarkibidagi nutrientlarning miqdori insonning kunlik ehtiyojini 1dan 55,5 % gacha qoplash imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ishlar nashr etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 7 ta maqola, ulardan 3 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 120 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida ilmiy tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, ilmiy tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti hamda tadqiqot usullari tavsifi keltirilgan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqi ko'rsatilgan hamda muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchliliigi, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati asoslangan. Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, ishlab chiqarishga joriy etilishi, chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Oziq-ovqat mahsulotlarini zamonaviy tendensiyalari tahliliy sharhi**" deb nomlangan birinchi bobida, un va non mahsulotlarining inson oziqlanish ratsionidagi ahamiyati va unning oziqaviy qiymatini oshirishning nechog'li muhim ekanligi yoritilgan. Novvoylik unlarini ishlab chiqarishda ikkilamchi xomashyolardan foydalanishning istiqbollari tahlil qilingan. Navli un turlari, ularning fizik-kimyoviy tarkibi, uning inson organizmida vitamin va minerallar bilan ta'minlashda samarali oziqalardan biri ekanligi hamda foydali xususiyatlari, tarkibidagi vitaminlar, makro va mikroelementlar to'g'risida ma'lumotlar hamda un va non mahsulotlarini biologik qiymatini oshirish bilan bir qatorda unning assortimentini kengaytirish maqsadida qishloq xo'jaligining chiqtlari ya'ni, noan'anaviy xomashyolar hisobiga boyitilgan undan yangi turdagi non mahsulotlari tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish yuzasidan olib borilgan

tadqiqot ishlari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. O'rganilgan adabiyotlar asosida boyitilgan un va non mahsulotlarining foydali xususiyatlari, unni boyitish chora tadbirlari, birinchi navli bug'doy unidan boyitilgan non tayyorlash texnologiyasi, xususiyatlari va kamchiliklari o'rganilgan holda tadqiqot vazifalari shakllantirilgan.


Dissertatsiyaning **“Unni boyitish texnologiyasi, xomashyolar va tayyor mahsulotni tahlil qilish usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot uchun tanlangan obyekt-grek yong'og'i yashil po'stlog'ining fizik-kimyoviy xususiyatlari, organoleptik ko'rsatkichlari keltirilgan bo'lib, uni tanlashda mintaqamizda keng ko'lamda yetishtiriladigan, quritish uchun yaroqli bo'lgan navlari tanlangan. Shu bilan birga tadqiqot obyektining umumiy tavsifi, fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari, tajribalarni o'tkazish tartibi va usullari batafsil yoritilgan. Shuningdek xomashyolarni tayyorlash, ularning tarkibi, oziqaviy qiymati va sifat ko'rsatkichlari aniqlangan.

Dissertatsiyaning **“Mahalliy sharoitda yetishtirilgan grek yong'og'i yashil po'stloqlari kukunini qayta ishlash texnologik xususiyatlari, oziqaviy qiymati va xavfsizligi tahlili”** deb nomlangan uchinchi bobida grek yong'og'i yashil po'stlog'iga ishlov berish va tarkibiy qismlarini o'rganish natijalari keltirilgan.

Po'stloq tarkibida vitamin va minerallardan tashqari tabiiy antioksidantlik xususiyatini namoyon qiluvchi glikozidlar, dubil moddalari va organik kislotalar mavjuddir. Dubil moddalar va glikozidlarining og'izni burishtiradigan taxir va achchiq ta'mi ularni oziq-ovqat mahsulotlariga qo'shishda ma'lum bir normalarga rioya etishni talab etadi. Tadqiqot ishida uni bartaraf etishning turli usullari qo'llanib, po'stloqni achchiq va taxir ta'mini ketkazishga erishildi.

Po'stloqlar harorat  $25 \pm 5$  °C namligi  $70 \pm 5$  % bo'lgan yelvizak joyda 5 kun davomida quritildi. Quritilgan po'stloqlarning ust tomoni yashil tusga, ichki tomoni to'q jigarrang tusga kirgan holda quridi hamda o'ziga xos yashil o't hidiga o'xshash hidi bor. Biroz nordonroq ta'mga ega.


Quyidagi 1-rasmدا tadqiqot natijalari keltirilgan bo'lib, po'stloq tarkibidagi vitamin va minerallar miqdori boshqoqli ekinlar (bizning holatimizda bug'doy doni) ning tarkibidan muayyan farqlanishi aniqlandi.



**1-rasm. Grek yong'og'i yashil po'stlog'i kukuni va bug'doy unining vitaminlar va mineral miqdori, mg/100 g**


Yuqoridagi ma'lumotlarga ko'ra, tadqiq qilingan grek yong'og'i yashil po'stloqlari kukunini namunalari kimyoviy tarkibi jihatidan bug'doy uniga o'xshashdir. Biroq qo'shimchanning tarkibidagi P (rutin)-4,8 mg, C-1g kabi moddalar

uning tarkibida umuman uchramaydi. 1-rasmda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra qo'shimchani tarkibidagi Mg-248 mg, K-441 mg, Ca-215 mg, P-416 mg, Mn-3,8 mg, Fe-5 mg, I-1,85 mg kabi mineral moddalarning miqdorini yuqoriligi katta ahamiyat kasb etadi.



**2-rasm. Grek yong'og'i yashil po'stloqlarini yig'ish va ishlov berishning texnologik sxemasi**

Un mahsulotini boyitishda mahalliy sharoitda yetishtirilgan grek yong'og'i po'stloqlaridan kukun olish maqsadida yashil po'stloqlarni yig'ish va ularga ishlov berish yuqoridagi texnologik jarayonlar ketma-ketligida amalga oshirish tavsiya etiladi. Laboratoriya tekshiruvidan o'tgan po'stloqlar turli mineral iflosliklardan tozalash maqsadida katta hajmdagi yuvuvchi mashina (1) da suv bosimi ostida purkash orqali yuvib tozalanadi. Yuvib, tozalangan po'stloqlar qo'l mehnati orqali saralash konveyeri (2) da saralab olinadi. So'ng saralangan po'stloqlar rolikli vibratsiya beruvchi lentada vibratsiya (3) berib, silkitish orqali qisman suvi tushiriladi. Po'stloqlarni quritish uchun setkali paddonlar (4) ga bir tekisda yoyilib, lotoklarga terib chiqiladi. Yoyilgan po'stloqlar salqin va yelvizak omborlarda quritiladi.




**3-rasm. Grek yong'og'i yashil po'stlog'iga ishlov berish texnologik liniyasi**

1-yuvuvchi mashina; 2-saralash uchun konveyer; 3-rolikli vibratsiya lentasi; 4-lotok; 5-maydalash mashinasi; 6-lovchi mashina; 7-uzatuvchi transpartyor; 8-qadoqlash mashinasi.

Quritilgan po‘stloqlarni yil davomida saqlash uchun maxsus qoplarga joylanadi hamda saqlash uchun omborga jo‘natiladi.

Quritilgan po‘stloqlarni un massasiga qo‘shishdan oldin ular maydalovchi mashina (5) yordamida maydalanadi va kukun holiga keltiriladi hamda elovchi uskuna (6) da elab olinadi. Maydalanmay qolgan po‘stloqlar qaytadan maydalash uskunasi ga uzatiladi. Tayyor bo‘lgan po‘stloq kukuni uzatuvchi transpartyor (7) orqali qadoqlash uskunasi (8) ga uzatiladi. Ushbu jarayon 3-rasmda keltirilgan.



**4-rasm. 1-ho‘l po‘stloq, 2-quritilgan po‘stloq, 3-po‘stloq kukuni, 4-qo‘shimcha bilan boyitilgan un.**

Ilmiy tadqiqot ishining keyingi bosqichi navli bug‘doy unini grek yong‘og‘i yashil po‘stloqlaridan tayyorlangan qo‘shimcha kukuni bilan aralashtirish va qiyosiy tahlil qilingan namunalarni tadqiq qilishni o‘z ichiga oladi.

Tadqiqot natijalari 4-rasm hamda 1-2-jadvallarda keltirilgan.

Quyidagi 1-va 2-jadvallarda GYoYaP dan tayyorlangan qo‘shimchaning fizik-kimyoviy, organoleptik va texnologik xossalari ko‘rsatkichlar keltirilgan.

### 1-jadval

#### GYoYaP laridan tayyorlangan qo‘shimchaning organoleptik ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkichlar	Ko‘rsatkichlarning tavsifi
1	Rangi	Yorqin jigarrang tusli
2	Ta‘mi	O‘ziga xos, begona ta‘msiz, ozroq nordonroq
3	Hidi	Xomashyodan olingan mahsulotga xos, begona hidsiz, qo‘lansa emas, mog‘or hidli emas
4	Mineral aralashmalar	Kerakli massa suvda namlab olindi va uni chaynab ko‘rilganda g‘irchillash his etilmadi
5	Konsistensiyasi	Mahsulotga xos har xil quyuvlikda, bir jinsli, qatlamlanish ruxsat etilmaydi
6	Maydalash yirikligi, № 38 raqamli elakdan: -qoldiq\o‘tishi	5\60

Keltirilgan 1-jadval ma‘lumotlariga ko‘ra GYoYaP laridan yaxshi sochiluvchan va yorqin jigarrang tusga ega hamda yuqori disperslik qo‘shimcha tayyorlash mumkin.

Olingan qo‘shimchani suv yutish qobiliyati ko‘rsatkichi bug‘doy uni (ya‘ni chiqishi 96 % bo‘lgan jaydari navli un) ko‘rsatkichlariga (62,0 %) yaqinligi aniqlandi.

GYoYaP kukunining granulometrik (fraksion) tarkibi bir jinsliroq bo‘lib, dominant (85,4-95,8 foiz) fraksiyada zarrachalar o‘lchamining o‘rtacha qiymati 133

mkm dan oshmadi. 180 mkm dan ortiq o'lchamli zarrachalar umumiy hajmiga nisbatan o'rtacha 4,6-13,8 foizgachani tashkil qiladi.

### 2-jadval

#### GYoYaP laridan tayyorlangan qo'shimchanning fizik-kimyoviy va texnologik tavsifi

№	Ko'rsatkichlar	Ko'rsatkichlar qiymati
1	Namlikning og'irlik ulushi %	8,0±0,5
2	Kukun zarrachalarining ekvivalent diametri, $d_{ekv.}$ , mkm	133
3	Tabiiy qiyalik burchagi, daraja	38
4	To'kiluvchanlik darajasi	O'rtacha
5	Suv yutish qobiliyati, %	62,0

Qiyoslash uchun I nav bug'doy unining granulometrik tarkibidan foydalanildi. Umumiy un hajmiga nisbatan 96,0 foiz zarrachalarning o'lchami 180 mkm dan oshmadi va 4,0 foiz qismi-200 mkm dan ortiq ekanligi aniqlandi. Granulometrik tarkib bo'yicha GYoYaP dan tayyorlangan qo'shimcha I navli bug'doy uniga yaqinligi aniqlandi. Nazorat namunaga solishtirilganda boshqa belgilarda ham katta farq mavjud emas.

### 3-jadval

#### Grek yong'og'i yashil po'stlog'i kukuni tarkibidagi biologik faol moddalar miqdori, (100 g)

№	Nomlanishi	Miqdor	№	Nomlanishi	Miqdor
<b>Vitaminlar:</b>			<b>Minerallar:</b>		
1	C (askorbin kislotasi)	1 g	8	Na (natriy)	1,2 mg
2	A ( $\beta$ -karotin)	12,1 mkg	9	Mg (magniy)	248,0 mg
3	P (rutin)	4,8 mg	10	K (kaliy)	441,0 mg
4	B <sub>1</sub> (tiamin)	2,1 mg	11	Ca (kalsiy)	215 mg
5	B <sub>2</sub> (riboflavin)	2,7 mg	12	P (fosfor)	416,0 mg
6	B <sub>6</sub> (pidoksin)	2 mkg	13	Mn (marganes)	3,8 mg
7	E (tokoferol)	6 mg	14	Fe (temir)	5 mg
			15	I (yod)	1,85 mg
<b>Biologik faol moddalar</b>					
16	Oqsil	12,4 g	19	Ozuqa tolasi	11,25 %
17	Uglevod	10 g	20	Dubil moddalar	3,3 g
18	Organik kislotalar	12 g	21	Glikozidlar	0,001 mg

O'rganilgan adabiyotlarga ko'ra, I navli bug'doy unida yod mikroelementining miqdori o'rtacha 2-8 mkg gachani tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkich inson organizmini ehtiyojlarini qondira olmaydi.

Olib borilgan navbatdagi tahlillarga ko'ra qo'shimcha tarkibidagi vitamin va minerallarning miqdori tadqiq qilindi. 3-jadvalda qo'shimcha tarkibidagi vitamin va minerallar miqdori keltirilgan.

Olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalariga ko'ra, GYoYaP laridan tayyorlangan qo'shimchalar non tarkibini yod mikroelementi bilan boyitishdan tashqari boshqa bir qator vitamin va minerallar ham kiritiladi.

Tahlil natijalariga ko'ra, un tarkibidagi vitamin va minerallarning miqdorini sezilarli darajada ko'tarilishi non mahsulotlarini oziqaviyligini oshirishga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqot ishini obyekt qo'shimcha tarkibidagi yod mikroelementi tahlil qilish bo'lganligi sababli nisbatlarni tanlashda asosan ushbu elementning miqdori inobatga olingan.

Birinchi navli bug'doy unini boyitish uchun 97:3, 96:4, 95:5, 94:6, 93:7, 92:8 nisbatlarda aralastirildi. Ularning tarkibidagi yod miqdori hisoblab chiqildi. Ushbu namunalar asosida non mahsuloti tayyorlab ko'rilganda 93:7 va 92:8 nisbatli un namunasi tayyorlangan non mahsulotini tarkibiga garchi yod miqdori ko'p kiritilsada, po'stloqning tarkibidagi bo'yovchi moddalar nonning mag'izini o'ta qoraytirib yuborishi kuzatildi. 97:3 va 96:4 nisbatli un namunasi tayyorlangan non mahsulotini barcha organoleptik ko'rsatkichlari qoniqarli bo'lsada, yodning massa ulushi kamligi bois ushbu nisbatlar tanlanmadi. 95:5 va 94:6 li un namunalaridan tayyorlangan non mahsulotlari organoleptik ko'rsatkichlari 93:7 va 92:8 li namunalaridan yaxshiroqligi kuzatildi. Biroq 97:3 va 96:4 li undan tayyorlangan non namunalaridan organoleptik ko'rsatkichlari past bo'lishiga qaramay yodning massa ulushi ularga nisbatan yuqoriligi sababli 95:5 va 94:6 nisbatlar asosida boyitilgan un namunalarini eng maqbul variant deb topildi.


Yod mikroelementini bug'lanish ko'rsatkichi yuqori bo'lganligi sababli boyitilgan un mahsulotini tik quyosh nuridan himoya qilish maqsadga muvofiqdir. Organoleptik ko'rsatkichlari ijobiy bo'lgan 97:3, 96:4, 95:5, 94:6 nisbatlardagi boyitilgan un 250 gramm kichik mato qopchalarda 6 oy davomida saqlash uchun quyosh nuridan himoyalangan havo namligi 70 % ni harorati esa  $20 \pm 1$  °C ni tashkil qilgan xonada saqlash uchun qoldirildi. Har 2 haftada un namunasi namlikka tekshirib turildi. Olingan namunalar tekshiruvdan keyin qoplarga qaytarilmadi.

Saqlashga qo'yilgan un namunalarining eng maqbul varianti tanlab olindi. Unga ko'ra 94:6 nisbatda qo'shimcha kiritilgan un namunasi maqbul deb topildi. Kiritilayotgan qo'shimchaning non rang ko'rsatkichlariga ta'siri yuqori bo'lganligi ya'ni, mag'izning o'ta qorayib ketishiga sabab bo'lganligi uchun uning miqdorini 94:6 nisbatdan oshirmaslik maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bundan tashqari ushbu namunani tanlab olinishining boisi shuki, non pishirish vaqtida yod mikroelementini yo'qotilishi kuzatiladi. 94:6 li un namunasi tayyorlashdan keyingi yodning miqdori kunlik ehtiyojni nisbati past namunalariga nisbatan ko'proq qondirishi ma'lum bo'ldi. Olib borilgan laboratoriya natijalariga ko'ra 6 oy davomida saqlangan boyitilgan un tarkibidagi yod mikroelementining o'rtacha yo'qotilishi 49 % ni tashkil qilgan.

Biroq ushbu xomashyoni maydalamasdan ya'ni kukun holiga keltirmasdan butunicha saqlanganda undagi yod mikroelementini yo'qotilishi 10 – 40 % ni tashkil qilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Un mahsulotini yil davomida boyitilishini ta'minlash maqsadida xomashyolar bazasi tashkil etiladi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda xomashyoni tarkibidagi yod mikroelementni yo'qotilishini qay darajada bo'lishini kuzatish maqsadida tadqiqot ishi davomida po'stloqlarni butunicha (maydalamasdan) 6 oy davomida saqlashga qo'yildi. 6 oydan keyin po'stloq tarkibidagi yod mikroelementini miqdori aniqlandi. Unga ko'ra 6 oy

davomida butunicha saqlangan po'stloqning tarkibidagi yodning massa ulushini yo'qotilishi 30 % ni tashkil qildi. Keltirilgan ma'lumotlarga tayanib po'stloqlarni unga qo'shish vaqtida maydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblaymiz.

GYoYaP laridan tayyorlangan qo'shimchalarni sifatini baholash bo'yicha o'tkazilgan tajriba hamda hisob ma'lumotlariga ko'ra un xomashyosini olingan qo'shimcha bilan boyitish uning oziqaviy va biologik qiymatini oshirishi asoslandi.



**5-rasm. Boyitilgan un tarkibidagi yod mikroelementini yo'qotilish ko'rsatkichi, mg/100 g**

Ilmiy tadqiqot ishida tadqiq qilinayotgan xomashyoning o'tkir zaharliligi aniqlandi. Tajribalar erkak jinsli, tana vazni 18-21 g bo'lgan zotsiz oq laboratoriya sichqonlarida o'tkazildi. Tajriba umumiy qabul qilingan usulda olib borildi. Har bir guruh uchun 6 boshdan sichqon olingan bo'lib, ularning umumiy soni 30 tani tashkil etdi.

Butun tajriba davomida nazorat guruhi barcha dozalarda hayvonlar o'limi qayd etilmadi. Olingan natijalardan kelib chiqib GYoYaP ning bir marotaba yoki qisqa (6 soatdan ko'p bo'lmagan) vaqt oralig'ida maxsus zond yordamida oshqozonga kiritilgandagi o'rtacha o'lim dozasi ( $LD_{50}$ ) >5000 mg/kg ekanligi aniqlandi.

**4-jadval**

**GYoYaP sichqonlar oshqozoniga kiritilganda uning o'tkir zaharlash ko'rsatkichlari**

Guruhlar	Hayvon turi, jinsi	Dozalar mg/kg, ml	Guruhdagi hayvon /o'lgan hayvon soni	Hayvon o'rtacha massasi (g) (dastlabki)	Hayvon o'rtacha massasi (g) (7 kun)	Hayvon o'rtacha massasi (g) (14 kun)	$LD_{50}$ ishonch oralig'i bilan
GYoYaP	Sichqon, erkak	2000	6/0	19±0,6	21±0,6	23±0,5	>5000 mg/kg
		3000	6/0	19±0,6	20±0,3	22±0,4	
		4000	6/0	19±0,4	20±0,2	21±0,4	
		5000	6/0	19±0,4	20±0,3	22±0,5	
Nazorat		0,5 ml	6/0	19±0,4	22±0,5	24±0,4	-

Grek yong'og'i yashil po'stlog'i qo'shimchasining o'tkir zaharlash xususiyatini o'rganish natijalari uning VI-zaharsiz birikmalar sinfiga mansub ekanligi va bir marotaba oshqozonga kiritilganda o'rtacha o'lim dozasi ( $LD_{50}$ ) >5000 mg/kg dan yuqori ekanligi aniqlandi. Olingan natijalar 4-jadvalda keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Grek yong‘og‘i yashil po‘stlog‘i asosida tayyorlangan qo‘shimchani un mahsulotining sifat ko‘rsatkichlari va oziqaviy qiymatiga ta‘sirini tadqiq qilish**” deb nomlangan to‘rtinchi bobda birinchi navli bug‘doy unining nonvoylik xossalari tahlil qilingan. GYoYaPdan tayyorlangan qo‘shimchani I nav bug‘doy unidan tayyorlangan milliy obinon mahsulotlarining oziqaviy qiymatiga va sifat ko‘rsatkichlariga ta‘siri o‘rganilgan. Tadqiqot ishini keyingi bosqichlarida tayyorlangan qo‘shimcha nisbatlarining xamir sifati va xossalari ta‘siri o‘rganildi.

Non xamirini tayyorlash uchun I nav bug‘doy uni olindi. Xamir yarimfabrikatlari GOST 27669-88 ga muvofiq oparasiz usulda 2.5-jadvalda keltirilgan retseptura bo‘yicha tayyorlandi. 2.2.3-bo‘limda tavsiflangan uslub bo‘yicha I nav bug‘doy unidan non tayyorlash retsepturasiga o‘zgartirish kiritildi.

I nav bug‘doy un mahsuloti 97:3, 96:4, 95:5 va 94:6 nisbatlarda qo‘shimcha aralastirilib, non tayyorlab ko‘rildi. Qo‘shimchasiz tayyorlangan xamir nazorat namunasi bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqot ishida taklif etilayotgan qo‘shimchani tarkibida ko‘p miqdorda vitamin va mineral moddalarning borligi bois, u asosida boyitilgan unning gaz hosil qilish xususiyati yuqori bo‘ladi. Demak o‘rganilgan qo‘shimcha tarkibidagi mineral moddalar bijg‘ituvchilarning mikroflorasi faolligiga ijobiy ta‘sir etib, xamirning yetilish jarayoniga va non mahsuloti sifatini oshirishga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi.

Qo‘shimcha miqdori oshirilgan tajriba namunalarida karbonat anhidrid gazining to‘planishi ortganligi qayd etildi. Gaz hosil bo‘lish 130±5 daqiqagacha ortdi. 150±5 daqiqaga yetganda ma‘lum darajada barqarorlashish kuzatildi. Bu esa xamirni yetiltirish vaqtini 20 daqiqagacha qisqartirishni (umumiy vaqti 130 daqiqa) tavsiya etishga asos bo‘ladi. Ushbu jarayon quyidagi rasmda aks etgan.



**6-rasm. Xamirni gaz hosil qilish tezligini o‘zgarishi**

Bijg‘itilgan xamir yarimfabrikatlarini bo‘laklashga tayyorligini aniqlashning eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri – bu kislotalilik hisoblanadi. I nav bug‘doy uni xamirini tavsiya etiladigan yakuniy kislotalilik darajasi 3,5 ni tashkil qiladi. Tadqiqot ishidagi tajriba namunalarida ushbu ko‘rsatkich qiymati novvoylik yarim fabrikatlarini yetilish davrini qisqartirishi mumkin.

Quyidagi jadvalda qo‘shimchani bug‘doy uni xamirining sifat ko‘rsatkichlariga ta‘siri keltirilgan. O‘tkazilgan tajriba kuzatuvlariga ko‘ra, boyitilgan un xamirlaridan tayyorlangan sharchalarning qalqib chiqishi nazorat namunaga nisbatan 95:5 % li namunada-5,3 daqiqaga va 94:6 % li namunada-9,6 daqiqaga kamayganligi aniqlandi. Boyitilgan un xamiri tajriba namunalarida bijg‘ituvchi mikrofloraning faolligi ularda kislotaga hosil bo‘lish jarayonining jadal

borishiga imkon beradi. Bunda yetilish davomiyligi 20 daqiqaga va tindirish davomiyligi 10 daqiqaga qisqardi.


## 5-jadval

### GYoYaP qo‘shimchasi nisbatlarining I nav bug‘doy uni xamirining sifat ko‘rsatkichlariga ta’siri

№	Ko‘rsatkich nomi	Nazorat namuna	Boyitilgan un asosida tayyorlangan xamirning sifat ko‘rsatkichlari	
			5%	6%
1	Namlilik, %	45,0±0,2	46,0±0,5	46,0±0,5
2	Kislotalilik, daraja:			
	- boshlang‘ich	1,9±0,1	2,1±0,1	2,2±0,1
	- yakuniy	3,3±0,1	3,3±0,1	3,5±0,1
3	Gaz tutib turuvchanlik xususiyati, sm <sup>3</sup>	45	40	38
4	Xamir sharchalarining qalqib chiqish xususiyati, Dsr., min.	94	89	85

Taklif etilayotgan qo‘shimcha nonning nazorat namunasiga nisbatan solishtirilganda non sifat ko‘rsatkichlariga ta’siri mavjudligi aniqlandi. Sifat ko‘rsatkichlar majmualari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: nonni organoleptik ko‘rsatkichlari 30 balli shkalada baholandi, mahsulotning fizik-kimyoviy xossalari 5 balli shkalada baholandi, mahsulot oziqaviy qiymati 100 balli shkalada baholandi. 94:6 foiz nisbatda boyitilgan un yetilish jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatganligi sababli sifatli non mahsulotlarini olishga imkon beradi. Pishirilgan non mahsulotlari yetarlicha g‘ovakliligi, po‘stini rangi o‘ziga xosligi, yoqimli hidi va o‘zgacha ta’mini odatdagiga qaraganda uzoqroq vaqt davomida saqlanib turdi. Unga qo‘shilgan qo‘shimchani 94:6 nisbatdan yuqori bo‘lgan miqdorlarda qo‘shilishi non mag‘zini yanada qorayishiga sabab bo‘ladi. Unni boyitishda qo‘shimchani 94:6 % miqdorda qo‘llanilganda yopilgan non tarkibidagi yodning miqdori 48 mkg ni tashkil qildi. Bunda boyitilgan undan tayyorlangan nonni 300 g miqdorda iste’mol qilish bilan 144 mkg yod organizmga qabul qilinadi. Ushbu ko‘rsatkich inson organizmini yodga bo‘lgan ehtiyojini 55,5 % ga qoplash imkonini beradi. 95:5 va 94:6 % qo‘shilgan undan tayyorlangan namunadagi non mahsulotlarini organoleptik xossalarning ko‘rsatkichlari nazorat namunasining ko‘rsatkichlariga yaqinligi aniqlandi. Bunda tajriba namunasini rang ko‘rsatkichi nazorat namunasini rang ko‘rsatkichidan farq qiladi. 97:3, 96:4, 93:7, va 92:8 nisbatlardagi un aralashmasidan tayyorlangan non mahsulotlari degustatorlar tomonidan qoniqarsiz deb topildi. Chunki past foizli namunalarda yodning miqdori kam bo‘lsa, yuqori foizli namunalarda nonning mag‘izida yuqori qorayish kuzatildi. Tadqiq qilinayotgan qo‘shimchani 95:5 – 94:6 % miqdorida qo‘shilishi eng maqbul nisbat bo‘lib, nisbatlarning oshirilishi mahsulotni organoleptik ko‘rsatkichlariga yomon ta’sir ko‘rsatishi kuzatildi. Belgilangan nisbatni kam foizini olish inson organizmini yodga bo‘lgan ehtiyojini kamroq qondirilishi aniqlandi. Tadqiqot obyekti sifatida I nav bug‘doy unidan tayyorlangan obi non tadqiqot ishining II bob, 2.2.3-bo‘limida tavsiflangan (ТИ 8-200-2002 Технологические инструкции по производству узбекских лепёшек) asosiy retsepturadan foydalanildi. Obi non 94:6 % miqdorda GYoYaP qo‘shimchasi

bilan boyitilgan un asosida tayyorlandi. Non namunalarini pishirish vaqtida uning qatlamlarida harorat 100 °C dan ortadi va natijada mahsulotning ta'mi hamda hidini ta'minlovchi uchuvchi moddalar chiqib ketadi.



**7-rasm. Obi nonlarning tashqi ko'rinishi**

1) qo'shimchasiz tagdonli non; 2) GYoYaP kukuni qo'shilgan; 3) qo'shimchasiz milliy non; 4) GYoYaP kukuni qo'shilgan milliy non.

Shu boisdan un tarkibidagi po'stloqqa xos bo'lgan o't hidi ham pishirish davomida yo'qoladi. 94:6 % dan yuqori bo'lgan un namunalaridan non tayyorlanganda mahsulotning rangi jigarrang tusga kirdi. Foiz miqdori oshgan sari rang ko'rsatkichlari ham ortib boradi ya'ni, nonning rangi to'qlashadi. Shu bois keyingi tadqiqotlarni maksimal ko'rsatkichda ya'ni, 94:6 % da olib borildi. Yuqoridagi 7-rasmda ularning tashqi ko'rinishi aks etgan.

Tadqiqotlarimizga ko'ra, tajriba namunalari fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari bo'yicha nazorat namunalaridan sezilarli farqlanmadi.

Qo'shimcha qo'shilgan undan tayyorlangan non mahsulotlari nazorat namunasidan po'stining rangi, yaxshi g'ovaklanganligi va elastik mag'zi bilan ajralib turdi (6-jadval).


Tayyor mahsulotning oziqaviy qiymati hisoblash uslubida, komponentlarning issiqlik bilan ishlov berishdagi saqlanuvchanligini hisobga olgan holda aniqlandi.

**6-jadval**

**Bug'doy I nav bug'doy unidan tayyorlangan obi nonlarning sifatiga GYoYaP qo'shimchasining ta'siri**


№	Ko'rsatkich nomi	Nazorat namunasi	Un vazniga nisbatan % qo'shimcha qo'shib tayyorlangan obi nonlarning sifat ko'rsatkichi qiymati	
			5%	6%
1	Namlik, %	39,5	40,0	40,5
2	Kislotalilik, daraja	2,80	2,90	3,00
3	Solishtirma hajm, sm <sup>3</sup> /g	1,30	1,31	1,32
4	Bo'kuvchanlik, sm <sup>3</sup> :			
	24 soatdan so'ng	4,00	5,80	6,10
	48 soatdan so'ng	1,30	2,00	2,40

Inson organizmini biologik faol moddalarga bo'lgan kunlik talabini qondirilish darajasini aniqlashga SanQvaM № 0347-17 bo'yicha IV guruh kasbiy faoliyatdagi (og'ir jismoniy mehnat ishchilari) 18-29 yoshlilar guruhi uchun o'rtacha fiziologik talab me'yorlari (ikkala jins uchun) olindi.




**8-rasm. Inson organizmini vitamin va minerallarga bo'lgan ehtiyoji va uni boyitilgan un hisobiga qoplanish ko'rsatkichlari, mg (1)**

18-29 yoshli insonlarda fiziologik o'sish hamda rivojlanish jarayonlari davom etayotganligi sababli ularning organizmida moddalar almashinuvi yaxshi boradi. Shu boisdan fiziologik talablarni me'yorlarini tanlashda ushbu guruh tanlab olingan. 8-9 rasmlarda inson organizmini vitamin va minerallarga bo'lgan ehtiyoji va uni boyitilgan un hisobiga qoplanish ko'rsatkichlari keltirilgan (8-, 9-rasmlar).



**9-rasm. Inson organizmini vitamin va minerallarga bo'lgan ehtiyoji va uni boyitilgan un hisobiga qoplanish ko'rsatkichlari, mg (2)**



**10-rasm. Birinchi navli bug'doy uni va boyitilgan unning vitamin va minerallarining ehtiyojni qoplash darajasi, (%)/100 g**

Qo'shimcha qo'shilgan undan tayyorlangan non mahsulotlarini organoleptik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari TI 8-200-2002 O'z DSt 1115: 2012 "Лепёшки Узбекские. Общие технические условия" talablariga javob berdi.

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki boyitilgan un inson organizmini vitamin va minerallarga bo'lgan ehtiyojini qondirish darajasi yuqoridir. Unga ko'ra undagi ayrim vitamin va mineral moddalar unning tarkibida umuman uchramasligi alohida ahamiyat kasb etadi.

E'tiborli tomoni shundaki, uning tarkibidagi yod mikroelementining miqdori sezilarli miqdorda ko'p bo'lib, organizmda yod tanqisligini oldini olishda funksional xususiyatga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarilishida samarali xomashyo vazifasini bajaradi.

## XULOSA

1. Ilmiy tadqiqot ishlarining tahliliy sharhi asosida grek yong'og'i yashil po'stloqlari non mahsulotlarini ishlab chiqarishda foydalanish maqsadga muvofiqligi tavsiya etildi.
2. Mahalliy sharoitda yetishtiriladigan grek yong'og'i yashil po'stloqlarining oziqaviy qiymati va texnologik xossalari tadqiq qilindi; ularni modifikatsiyalash (po'stloqqa ishlov berish) samaradorligi aniqlandi.
3. Tadqiqotlar novvoylik xossalari yuqori bo'lgan I navli bug'doy uniga biologik faol moddalarni qo'shish inson organizmini vitamin va minerallarga bo'lgan talabini 1-55 % gacha qoplashini ko'rsatdi.
4. GYoYaPdan tayyorlangan qo'shimchani un mahsulotiga 94:6 nisbatda qo'shish asosida tayyorlangan non mahsuloti inson organizmining yodga bo'lgan kunlik ehtiyojini 55 % ga qondirishi aniqlandi.
5. Birinchi navli bug'doy unini mahalliy grek yong'og'i (*Juglans regia*) po'stlog'i tarkibidagi biologik faol moddalar bilan boyitish inson organizmining vitamin va minerallarga bo'lgan kunlik fiziologik ehtiyojini o'rtacha 6,5 % dan 13,9 % ga oshirilganligi aniqlangan.
6. Boyitilgan un tarkibidagi (Ca, P, Mg, Fe) minerallar non xamirini bijg'ish jarayonida bijg'ituvchi mikroflora hayot faoliyatining jadallashuvi hisobiga xamirning yetilish vaqtini  $150 \pm 5$  daqiqadan  $130 \pm 5$  daqiqaga qisqarishi aniqlangan.
7. Tadqiqotlar natijalari un mahsulotiga qo'shiladigan qo'shimcha nonning glikemik indeks va glikemik yuklamaga ta'sir ko'rsatib, nazorat namunaga nisbatan 4 % ga kamayishiga olib keldi.
8. Mahsulotning ulgurji ishlab chiqarish narxlari hisobi un mahsulotiga GYoYaP lari qo'shimchasidan foydalanishning maqsadga muvofiqligi va iqtisodiy samaradorligi aniqlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ  
DSc. 03/29.08.2023.К/Т.66.02 ПРИ НАМАНГАНСКОМ ИНЖЕНЕРНО-  
ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

---

**НАМАНГАНСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ**

**ХОШИМОВА НАЗИРА ХАКИМЖАНОВНА**

**ТЕХНОЛОГИЯ ОБОГАЩЕНИЯ ПШЕНИЧНОЙ МУКИ  
БИОЛОГИЧЕСКИ АКТИВНЫМИ ВЕЩЕСТВАМИ С  
ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ КОРЫ МЕСТНОГО ГРЕЦКОГО ОРЕХА  
(JUGLANS REGIA)**

**02.00.17-Технология и биотехнология обработки, хранения и переработки  
сельскохозяйственных и пищевых продуктов**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА  
ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Наманган – 2025**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при министерстве Высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан за номером В2025.1.PhD/T2801.**

Диссертация выполнена в Наманганском инженерно-технологическом институте.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице научного совета по адресу [www.nammti.uz](http://www.nammti.uz) и информационно-образовательном портале «Ziyonet» [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).

**Научный руководитель:**

**Джахангилова Гулноза Зинатуллаевна**  
доктор философии по техническим наукам,  
профессор

**Официальные оппоненты:**

**Маматов Шерзод Машрабжанович**  
доктор технических наук, профессор

**Рузибоев Акбарали Турсунбоевич**  
кандидат технических наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Ташкентский государственный технический университет**

Защита диссертации состоится «21» июня 2025 г. В 9<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета DSc.03/29.08.2023.К/Т.66.02 при Наманганском инженерно-технологическом институте (Адрес: 160115, г. Наманган, ул. Касансай, 7. Тел.: (69) 225-10-07, факс: (69) 228-76-75, e-mail: [niei\\_info@edu.uz](mailto:niei_info@edu.uz), Наманганский инженерно-технологический институт, 3-здание, 1-этаж, ауд. 303).

Диссертация зарегистрирована в информационно-ресурсном центре Наманганского инженерно-технологического института за № 15, с которым можно ознакомиться в ИРЦ. Адрес: 160115, г. Наманган, ул. Касансайская, 7. Тел.: (69) 225-10-07, факс: (69) 228-76-75.

Автореферат диссертация разослан «03» июня 2025 года.  
(реестр протокола рассылки № 3 от «03» июня 2025 года)

**О.К. Эргашев**

Председатель научного совета по  
присуждению учёной степени, д.х.н.,  
профессор

**Д.Ш. Шеркузиев**

Ученый секретарь научного совета по  
присуждению учёной степени, д.т.н.,  
профессор

**А.М. Хамдамов**

Председатель научного семинара при  
Научном совете по присуждению ученой  
степени, доктор технических наук, в.б.,  
профессор

## **Введение (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Обеспечение населения планеты полноценными и безопасными потребительскими товарами является одной из приоритетных задач пищевой промышленности и является одним из главных условий устойчивого развития, здоровья и экономического роста в глобальном масштабе. В частности, особое место занимают продукты питания, изготовленные из растительного сырья, богатого витаминами и минеральными веществами. Инновационные и новые технологии, направленные на обеспечение населения продуктами питания высокого качества и биологической ценности, расширение их ассортимента, имеют важное значение для обеспечения конкурентоспособности и надежности продуктов питания, причем не только на местном, но и на международном рынке.

